

**ISSN:3060-4567 Modern education and development**  
**AFG‘ONISTON ISLOM RESPUBLIKASI VA ERON ISLOM**  
**RESPUBLIKASI MUNOSABATLARIDA TASHQI SIYOSAT**  
**STRATEGIYASI**

*Axmadjonov Nurislom Baxtiyorjon o‘g‘li*

***Annotatsiya.** Mazkur tezisda Afg‘onistonda ikkinchi marta hokimiyatga kelgan Tolibon harakati hamda Eron Islom Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlar, Eronning Afg‘onistonga “yumshoq kuch” siyosati, shuningdek, Eronning "Afg‘oniston masalasida" Tolibon hukumati bilan o‘zaro munosabatlardagi pragmatik strategiyasi kabi jihatlari yoritib beriladi.*

***Tayanch so‘zlar:** Afg‘oniston, Eron, Afg‘on-Eron munosabatlari, Tolibon harakati, “yumshoq kuch” siyosati,*

Aytish joizki, ko‘pchilik tahlilchilar Tolibonning Afg‘onistonda ikkinchi hukmronligi boshlanishi bilan (2021-yildan) Afg‘oniston va Eron o‘rtasidagi munosabatlar yana 1990-yillardagidek keskinlashib ketishini prognoz berishgan edi. Tahlilchilar uchun ushbu gipotezani kuchaytirgan jihat shuki, AQSh Afg‘onistondan qo‘shinlarini olib chiqib ketganidan so‘ng vujudga kelgan noaniq strategiya, Tolibon hukumatining mafkuraviy tabiati hamda birinchi Tolibon hukumatining (1996-yildan) Eronga dushmanona munosabati foni sabab bo‘lgan. Ushbu qarashga qaramay, o‘tgan uch yil davomida ikki jihat aniqlasha boshladi: birinchidan, Tolibon hukmronligining boshida Eron va Tolibon hukumati o‘rtasidagi munosabatlarga asosan “fitna nazariyalari” hamda “sust darajadagi Tolibon diplomatiyasining xatti-harakatlari” ta’sir ko‘rsatgan. Ikkinchidan, Eron va Tolibon hukumati o‘rtasidagi qo‘shnichilik va siyosiy hamjihatlik nihoyat ustunlik qila boshlab, turli raqobatchi kuchlarning (birinchi navbatda AQShning) "buzg‘unchi siyosati" ustidan g‘alaba qozondi.

Xo‘sh, Eronning yondashuvi: yaxshi qo‘shnichilik siyosatiga asoslangan hamkorlik aloqalari qanday bo‘ldi?

Vaqt o‘tishi bilan vaziyat shuni ko‘rsatdiki, Eron AQShning Afg‘onistondan qo‘shinlarini olib chiqib ketganidan keyingi sharoitlarni

sinchiklab baholab, Tolibon hukmronligi ostidagi Afgʻonistonga nisbatan Eron Islom Respublikasining asosiy tamoyillarini saqlab qolib, oʻziga xos realistik yondashuvni qoʻlladi.

Boshqacha qilib aytganda, Kobul-Tehron munosabatlari Afgʻonistondagi oxirgi voqealar fonida institutsional strategiya bosqichiga kirdi. Oʻz navbatida Eron tomoni yondashuvi va xatti-harakati shuni koʻrsatadiki, Eronning Tolibon hukumati bilan oʻzaro munosabatlardagi pragmatik strategiyasi toʻrtta asosiy tamoyilga asoslanadi.

**Birinchidan**, Eron Tolibonni Afgʻonistondagi siyosiy hokimiyat sohasida inkor etib boʻlmaydigan fakt deb biladi;

**Ikkinchidan**, Tehron nazdida, AQSh qoʻshinlarini olib chiqib ketganidan keyin Afgʻonistondagi siyosiy barqarorlik va mintaqa barqarorligi oʻrtasida uzviy bogʻliqlik yuzaga keldi deb hisoblaydi;

**Uchinchidan**, iqtisodiy imkoniyatlarga ega barqaror Afgʻoniston Eronning milliy manfaatlariga mos keladi. Bundan tashqari Eron hech boʻlmaganda noqonuniy afgʻon immigratsiya hajmini kamaytirishga umid bogʻlaydi;

**Toʻrtinchidan**, Eron Afgʻonistonning boʻlajak siyosiy tuzumining shakllanishi Gʻarb kuchlarining aralashuvisiz milliy va mintaqaviy jarayonlar orqali amalga oshirilishi kerak, degan qatʻiy qarorga kelgan.

Eronning Afgʻonistonga nisbatan yaxshi qoʻshnichilikka asoslangan institutsional strategiyasi va siyosati Tolibon hukmronligining birinchi va ikkinchi yillarida nisbatan inqirozli muammolarga duch keldi.

Masalan, Tolibon va Eron chegarachilari tomonidan ziddiyatlashgan koʻplab chegara mojarolari, giyohvand moddalar savdosi, ISHID faoliyati, bojxona muammolari, Eronning noqonuniy afgʻon migrantlariga qarshi hissiy munosabati, kabi omillar shubhasiz, Kobul-Tehron munosabatlarning jiddiy inqiroziga aylanishi mumkin edi. Shunga qaramay, Eron bu muammolarni tinch yoʻl va usullar bilan hal qilishga urindi.

Oʻz navbatida, Eronning interaksionistik strategiyasi natijasida Tolibon hukmronligi ostidagi Afgʻoniston va Eron oʻrtasida oʻzaro ishonch uchun asoslar

shakllanishiga olib keldi. Ayni damda ushbu strategiya Eron va uning qo'shnilari o'rtasidagi keskinlikni oldini olishga asoslangan tashqi siyosat tamoyillariga asoslanadi.

Tolibon ham Eron strategiyasini to'g'ri tushuna boshladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Tolibon hukumati oxirgi bir yilda Kobul va Tehron o'rtasida ishonch o'rnatish uchun nisbatan samarali qadamlar tashladi. Masalan, 2023-yil noyabr oyida Afg'oniston Islom Amirligi Bosh vazirining iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Mulla Abdul G'ani Barodar boshchiligidagi Tolibon vakillari Eron Islom Respublikasida "rasmiy" tashrif bilan bo'lib, quyidagi masalalarni muhokama qildi:

- Savdo aylanmasini oshirish;
- Eron orqali Afg'oniston tranzitini kengaytirish: ushbu sohalarda ikki tomonlama idoralararo texnik qo'mitalar tashkil etish;
- Afg'oniston iqtisodiyotiga Eronning sarmoyalari;
- Afg'onlarga viza berish tartibini soddalashtirish;
- Erondagi afg'on muhojirlarining ahvoli;
- Badaxshondagi Vaxon yo'lagini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik.

O'z navbatida, rasmiy Tehronning tashqi siyosati shuni ko'rsatadiki, Eron "Afg'oniston masalasida" boshqa nufuzli ijtimoiy-siyosiy guruhlar (tashkilotlar) bilan bir qatorda Tolibon hukumati bilan ham aloqalarini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Biroq Eron "afg'on masalasi" bo'yicha harbiy sohada hech qanday guruhga yordam bermaydi va qo'llab-quvvatlamaydi. Buning o'rniga Tehron Afg'onistondagi vaziyatni beqarorlashtirish, konstruktiv muloqotlarni rag'batlantirish va milliy kelishuvga erishishga harakat qiladi. Jumladan, Eron mintaqaviy mexanizmdan kelib chiqib, "Afg'oniston masalasida" mintaqaviy jarayonlar, jumladan Moskva formati va Mintaqaviy aloqa guruhi kabi formatlarda ishlashni davom ettirib, Afg'onistonda barqaror tartibni shakllantirishda konstruktiv rol o'ynashi uchun zarur zamin yaratishga yordam bermoqda. Bu kabi sa'y-harakatlar Eronning Afg'onistondagi o'zgarishlarning asosiy o'yinchilaridan biri sifatidagi mavqei va rolini mustahkamlaydi va kuchaytiradi. O'z navbatida, Eron kuchli "siyosiy o'yinchi"

bo'lishdan tashqari Tolibon hukumatining mintaqada Xitoydan keyingi birinchi iqtisodiy hamkoriga aylanmoqda. Bundan tashqari Eron Afg'onistondan keladigan xavf-xatarlarni oldini olish, jumladan, turli terroristik guruhlar hamda noqonuniy afg'on migratsiyasiga qarshi xavfsizlikni masalasiga ham e'tibor berib, Afg'oniston bilan chegarada 50 km. bo'lgan devor qurmoqda. Hozirgi paytgacha devorning 10 km qurib bitkazildi. Eron tomoning Afg'oniston bilan chegaraning shimoliy qismida chegaralarni yopish harakatlari yuqorida ta'kidlaganimizdek xavfsizlikni nuqtai nazaridan amalga oshirilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Eronning Hirot-Xaf temir yo'li loyihasini yakunlash bo'yicha sa'y-harakatlari, Afg'onistonning Chobahor portiga chiqishi hamda Afg'onistonning mintaqaviy tranzit yo'lagiga ulanishi, Eronning Afg'onistonning kon va boshqa sanoatiga sarmoya kiritish imkoniyatlari va manfaatdorligi, Afg'oniston bozorining Eron mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji va eng muhimi, iqtisodiy model Eronning G'arb sanksiyalariga qarshilik ko'rsatishi, Eron va Tolibon hukumati o'rtasidagi kelajakdagi o'zaro munosabatlar istiqbolida Eronning roli va mavqeini yanada oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Белокреницкий В.Я., Сикоев Р.Р. Движение Талибан и перспективы Афганистана и Пакистана. – М: Институт востоковедения РАН, 2014.
2. Степанова Е. Фактор ИГИЛ и движение Талибан в политике России по Афганистану и в более широком регионе. Пути к миру и безопасности. 2017, № 1(52) Спецвыпуск: Проблемы терроризма, насильственного экстремизма и радикализации (российские и американские подходы). Под редакцией Е.А. Степановой, сс. 213–237. DOI:10.20542/2307–1494–2017–1–213–237.
3. Федорова И.Е. Перспективы взаимодействия в треугольнике «Россия–Иран–Индия». Россия и Иран: пять веков сотрудничества. Труды Института востоковедения РАН. Вып. 15. С.359–367. Федорова И.Е. Влияние глобальных и региональных игроков на внешнюю политику ИРИ. Сб. статей Государство, общество, международные отношения на мусульманском Востоке ИВ РАН М., 2013, сс.484–492.